

ZAMONAVIY JANGDA UCHUVCHISIZ UCHISH APPARATLARINI RADIOALOQA
VOSITALARI BILAN QO'LLASH ISTIQBOLLARI

Jonibek Odinayev¹

¹University of Management and Future Technologies,
Menejment kelajak texnologiyalari Universiteti magistranti.

Azizbek Mingboyev²

Aloqa va axborot texnologiyalari mutaxassislarini
tayyorlash markazi radio va kosmik aloqa sikli boshlig'i-katta o'qituvchisi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15739645>

Annotatsiya. Ushbu maqola zamonaviy jang maydonida uchuvchisiz uchish apparatlari bilan PD-785 ultraqisqa to'lqinli radiostansiyaning ovoz kuchaytirgichlari yordamida dushman harbiy xizmatchilariga psixologik hujum qilish orqali dushmanni zaiflashtirishga va yakson qilishga yordam beradi.

Kalit so'zlar: zamonaviy jang, uchuvchisiz uchish apparati, PD-785, ovoz kuchaytirgichi.

Аннотация. В данная статья поможет ослабить и уничтожить противника на современном поле боя путем психологического воздействия на личный состав противника с использованием громкоговорителей с УКВ радиостанции PD-785 с беспилотными летательными аппаратами.

Ключевые слова: современное поле боя, беспилотный летательный аппарат, PD-785, громкоговоритель.

Zamonaviy harbiy amaliyotlar shiddat bilan rivojlanib, sun'iy intelekt, avtomatlashtirilgan tizimlar va radioaloqa vositalarining qo'llanilishi yangi imkoniyatlar ochib bermoqda. Ular razvedka, hujum, qo'riqlash va logistika kabi ko'plab maqsadlarda foydalanilmoqda. Uchuvchisiz uchish apparatlari zamonaviy jangovar taktikada muhim o'rinnegallab, ularning radioaloqa vositalari bilan uyg'unligi samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi.

Ushbu maqolada dronlar va radiostansiyalarini integratsiyasi, ularning jangovar harakatlardagi o'rni va istiqbollari muhokama qilinadi.

Hozirgi dunyo harbiy siyosiy vaziyati tobora chigallashib bormoqda. Noqonuniy qurollangan tuzilmalar, terroristik guruhlar va davlatlar o'rtasida harbiy mojarolar avj olib bormoqda. Hususan, Rossiya – Ukrainada sodir bo'layotgan mojarolar, Tolibon harakatining Afg'onistonni egallab olishi, Suriyada "Hay'at tahrir ash-Shom" guruhining hokimiyat teppasiga kelishi hozirgi zamonaviy jang olib borish strategiyasini kundan-kunga o'zgartirib bormoqda.

Chunki bu harbiy harakatlarda ishtirokchilarning yangidan-yangi texnologiyalar va strategiyalarni qo'llashi oqibatida arzon qurollar bilan katta-katta talofatlar yetkazilmoqda.

2021- yildan hozirgi kunga qadar davom etayotgan Rossiya-Ukrainadagi harbiy harakatlar davomida ikki davlat tomonidan uchuvchisiz uchish apparatlariga turli xildagi portlovchi moddalar va snaryadlarni o'rnatish orqali dushmanni jonli kuchini, harbiy texnikalarini va binolarini yakson qilishda foydalanishmoqda.

Uchuvchisiz uchish apparatlarini asosan razvedka, boshqaruv (kuzatuv) hamda hujum qilish yo'lida foydalanishmoqda.

Uchuvchisiz uchish apparatlarining o‘ziga xosligi arzonligi, tez ishga tayyorlanishi, yasalishining oddiyligi, masofadan boshqarishning mavjudligi hamda, belgilangan marshrut bo‘yicha vazifalarini aniq bajarishi.

Uchuvchisiz uchish apparatiga Hytera PD-785 ultraqisqa to‘lqinli radiostansiya o‘rnatilib, radiostansiyaning karnayi o‘riga ovoz kuchaytirgichni ular qo‘shish orqali masofadan boshqariladigan ovoz kuchaytirgich yasash mumkin. Buning uchun Hytera PD-785 radiostansiyasining karnayi o‘rniga ovoz kuchaytirgich yoki baland ovozli karnay ulanadi. Bunda radiostansiyasining karnayining kirish qarshiligi bilan ovoz kuchaytirgichining kirish qarshiligi mos kelishi talab etiladi.



Shu orqali PD-785 radiostansiyasining aloqa masofasi uzoqligida shahar sharoitida 5 kilometrgacha, shahardan tashqari ochiq hududda 10 kilometrgacha aloqa masofasini uzaytirish mumkin.

Uchuvchisiz uchish apparatlarini jang maydonida qo‘llash

Uchuvchisiz uchish apparatiga ovoz kuchaytirgichini integratsiya qilish orqali front chizig‘i bo‘ylab pozitsiyaga joylashgan dushmanni ogohlantirish, ularni sarosimaga solish hamda ruhiyatiga ta’sir ko‘rsatish orqali ularni taslim bo‘lishga undash va chalg‘itishga erishish mumkin. II jahon urushi davrida Germaniya tomonidan psixologik hujum qo‘llanilib, o‘z ta’sirini ko‘rsatgan bo‘lsa, hozirgi kunda Rossiya-Ukrainadagi harbiy harakatlarda psixologik hujum qilish keng qo‘llanilmoqda va o‘z samarasini berib kelmoqda.

Psixologik hujumning maqsadlari:

Dushmanga psixologik hujum qilish – bu uning ruhiy holatini izdan chiqarish, ishonchini yo‘qotish va qo‘rquvga solish uchun qo‘llaniladigan strategiyalar majmuasidir.

Dezinformatsiya (yolg‘on axborot tarqatish) dushmanni noto‘g‘ri qaror qabul qilishga majbur qilish uchun yolg‘on yoki chalg‘ituvchi ma’lumotlar tarqatish.

Masalan, harbiy harakatlarda soxta hujumlar yoki noto‘g‘ri joylashuv haqida ma’lumotlar tarqatish.

Qo‘rquv va shubha uyg‘otish – dushmanni kuchsiz tomonlarini ochib berish va ulardan foydalanish, unga psixologik bosim o‘tkazish orqali o‘z kuchiga ishonchsizlik paydo qilish.[1]

Muvozanatdan chiqarish – doimiy stress, bosim yoki tahdid ostida ushlab turish. Doimiy psixologik hujumlar qilish orqali dushmanni maqsadga erishishida muvozanatdan chiqarish.

Ishonchsizlik yaratish – dushman jamoasi o‘z qo‘mondoligiga bo‘lgan ishonchsizligini paydo qilish. Jamoa ichida fitnalar, shubhalar yoki ichki ziddiyatlar chiqarish.[2]

Qarorlarni shoshma-shosharlik bilan qabul qilishga majbur qilish – dushmanni tez va noto‘g‘ri qaror qabul qilishga majbur qilish – dushmanni tez va noto‘g‘ri manyovr yoki qaror qabul qilishga undash uchun bosim o‘tkazish.

Psixologik provokatsiya va manipulyatsiya – dushmanni g‘azablantirish yoki hissiyotlari orqali nazorat qilish. Ularni his-tuyg‘ularga berilishga majbur qilish, aql bilan emas, hissiyot bilan harakat qilishga undash.

Psixologik ta’sirni qo‘llash usullari:

1. Kechasi va kunduzi davom etuvchi shovqin va ruhiyatga ta’sir qiluvchi tovushlar:

- tinimsiz baland ovozli musiqa, qurol-yarog‘ ovozlari yoki qo‘rinchli tovushlar uzatish.
- dushmanni uyqusiz qoldirish, ularni doimiy stress holatiga tushirish.
- ba’zan qo‘rquv uyg‘otuvchi tovushlar (odam qichqirig‘i, portlash ovozlari, o‘q ovozlari)ni doimiy bexostan uzatish.[4]

2. Taslim bo‘lishga da’vat qilish:

- dushmanga taslim bo‘lish yoki qo‘rqmasdan qochish haqida murojaatlar.
- ularga hayotlarini saqlab qolish uchun taslim bo‘lish yaxshiroq ekanini ta’kidlovchi ma’lumotlar berish. Koreya urushida AQSH va Janubiy Koreya qo‘shinlari Shimoliy Koreya askarlarini taslim bo‘lishga chaqirgan.

3. Propaganda va axborot urushi:

- dushman safida ichki nizolarni kuchaytirish, komandirlarni obro‘sizlantirish.
- “sizni qo‘llab-quvvatlamayabdi, sizni tashlab ketishdi” kabi ruhiy ta’sir o‘tkazuvchi xabarlar.
- qarshi tomonni ichki ziddiyatga olib keladigan yolg‘on ma’lumotlar.

Barcha psixologik ta’sirlar dushman tilida tarqatish ularni o‘z safiga og‘dirish osonlashadi. Ikkinci jahon urushida ittifoqchi kuchlar nemis askarlari uchun ularning ona tilida chaqiriqlar uzatgan.[3]

Hozirda ushbu usullar quyidagi zamонавиy harbiy harakatlarda qo‘llanilib kelinmoqda:

- Shimoliy va Janubiy Koreya o‘rtasidagi propagandistik urush – Janubiy Koreya shimoliy qo‘shinlarga qarshi ovoz kuchaytirgich orqali axborot tarqatgan.

• Amerika Qo'shma Shtatlarining Panamaga qarshi operatsiyasi (1989) – AQSH qo'shinlari Noriega rejimini taslim qilish uchun baland musiqa va eshittirishlardan foydalangan.

• Rossiya-Ukraina urushida psixologik urush – Ikkala tomon ovoz kuchaytirgich orqali bir-birining askarlarini ruhiy bosim ostiga olishga urinishgan.

Zamonaviy jang maydonida dronlarning radioaloqa vositalari bilan uyg'unlashuvi harbiy operatsiyalar samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda.

Shu bilan birga, ushbu tizimlarning kiberxavfsizlik va elektromagnit to'sqinliklarga qarshi chidamliligi dolzarb muammolardan biri bo'lib qolmoqda. Turli mamlakatlarning ilg'or texnologiyalari dronlar va radioaloqa tizimlarini yanada samarali qilish yo'lida rivojlanmoqda. [5]

4 yildan buyon davom etib kelayotgan Rossiya – Ukraina urushida qo'llanilib kelayotgan zamonaviy dronlarning jang maydonida keng foydalanilayotgani jang olib borish strategiyasini butunlay o'zgartirib yubordi. Zamonaviy jang maydonida ilg'or texnologiyalardan foydalanish harbiy xizmatchilarga qulayliklar yaratadi.

Xulosa qilib aytganda, dronlar va radioaloqa vositalarining zamonaviy janglarda qo'llanishi harbiy strategiyalarni sezilarli darajada o'zgartirmoqda. Bu texnologiyalar rivojlanishi bilan ularning xavfsizligi, samaradorligi va ishonchliligi ham oshib boradi.

Kelajakda yanada ilg'or texnologiyalar joriy etilishi natijasida dronlar jang maydonida yanada muhim ahamiyat kasb etishi kutilmoqda.

Bundan tashqari uchuvchisiz uchish apparatlariga ovoz kuchaytirgichlarini o'rnatish orqali nafaqat dushmanni balki o'zimizning harbiy xizmatchilarga jang maydonida jangovar ruh va buyruqlarni aloqa uzilgan vaqtida tez va oson yetkazish imkoniyati mavjud.

Uchuvchisiz uchish apparatlariga radioaloqa vositalarini integratiya qilish orqali masofadan turib dushmanning harbiy xizmatchilariga psixologik hujum qilish orqali dushmanni chalg'itish, taslim bo'lishga undash hozirgi zamonaviy usullardan biri hisoblanadi. Ushbu qurilma ko'p sonli dushmanni asirga olish va ishtiyoqini so'ndirishda katta ahamiyatga ega.

Foydalanilgan manbalar va adabiyotlar

1. Clausewitz, Carl von. *On War* – Urush strategiyalari va psixologik ta'sir haqida fundamental ish.
2. Lasswell, Harold D. *Propaganda Technique in the World War* – Urush davridagi propaganda usullari tahlili.
3. Taylor, Phillip M. *Munitions of the Mind: A History of Propaganda from the Ancient World to the Present day* – Qadimdan hozirgacha propagandaning evolyutsiyasi.
4. Watson, Peter. *War on the Mind: The Military Uses and Abuses of Psychology* – Harbiy psixologyaning amaliy qo'llanishi.
5. Singer, P.W., & Brooking, Emerson T. *LikeWar: The Weaponization of Social Media* – Zamonaviy urushlarda axborot va psixologik strategiyalar.